

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODKORLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA LINGVISTIK TOPSHIRIQLARNING AHAMIYATI

Shodiyeva Mehribon Amin qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan matn ustida ishlash jarayoni va bunda kreativ topshiriqlardan foydalanishning o'ziga xos jihatlari yoritilgan. So'z va uning ma'nolari bilan ishlash orqali o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish yo'llari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: lingvistik topshiriq, estetik zavq, so'z o'yinlari, ijodkorlik qobiliyati, xotiraviy mashqlar, ijodiy topshiriq, kreativ fikrlash, kompetensiya.

Аннотация: В статье рассматривается процесс работы над текстом с учащимися начальной школы и особенности использования творческих заданий в этом процессе. Анализируются способы расширения словарного запаса учащихся посредством работы со словами и их значениями.

Ключевые слова: языковое задание, эстетическое удовольствие, словесные игры, творческие способности, упражнения на память, творческое задание, творческое мышление, компетентность.

Abstract: This article discusses the process of working with primary school students on a text and the specific aspects of using creative tasks in this process. The article analyzes ways to increase students' vocabulary by working with words and their meanings.

Keywords: linguistic task, aesthetic pleasure, word games, creative ability, memory exercises, creative task, creative thinking, competence.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirish, lug'atini boyitish, til birliklariga nisbatan qiziqishini oshirishda matn ustida ishlash jarayoni katta yordam beradi. Lingvistik turdagi topshiriqlardan foydalanish darsning sifat va samaradorligini oshirib, qiziqarliligini ta'minlaydi. Ushbu jarayonda gaplarning sintaktik qurilishi, matnning kompozitsion qurilishi va uslubiy xususiyatlari haqidagi bilimlar shakllanib boradi. Matnni qog'oz variantidan tashqari audio, video, rasmi ko'rinishlaridan foydalanish o'quvchilarga estetik zavq bag'ishlaydi va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Matn asosida turli so'z o'yinlari, xotiraviy mashqlar, ijodiy topshiriqlarni bajarish o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantiradi va darsda bir xillikning oldini oladi. O'quvchilar bilan individual yoki jamoaviy tarzda bajarilgan amaliy topshiriqlar darsning qiziqarli o'tishini ta'minlashi, diqqatni jalb qila olishi va o'quvchilar yoshiga

mos bo'lishi lozim. Mavhum tushunchalar emas, balki aniq, hayotiy tushunchalardan foydalanish, o'quvchilarning ko'proq mustaqil ishlashiga e'tibor qaratish zarur. Matn bilan ishlash jarayonida, ayniqsa, to'g'ri tuzilgan savollar ham muhim ahamiyatga ega. O'quvchining o'zi mustaqil ravishda sintaktik va leksik jihatdan to'g'ri savol tuza olishi matn tahlilida muhim ahamiyatga ega. Matnni ifodali va to'g'ri o'qish uning tushunilishini osonlashtirish bilan birga orfoepik xatolarni to'g'rilashga yordam beradi. Ijodiy topshiriqlarga urg'u qaratilsa, o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyati ko'proq rivojlanadi. Matndan chiqariladigan xulosaning hayotiy misollar bilan bog'lanishi, o'yin asosida o'rgatish modeli kabilar dars samarasini yana-da oshirishga yordam beradi. So'z, so'z birikmasi, gap o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarni aniqlash, matn tahlili asosida olingan bilimlarni mustahkamlash, kerakli xulosalarni chiqarish o'quvchilarda kreativ fikrlash asoslarini shakllantiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlay olish, til birliklaridan to'g'ri foydalanish va ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishda tilga oid dastlabki tushunchalarni o'rgatish lozim. Tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, imloviy qoidalar asosida yozish, so'z va gaplarni grammatik jihatdan to'g'ri tuza olish kabi qoidalar amaliy topshiriqlar asosida o'rgatib boriladi. Jadvallar, turli suratlar, so'z o'yinlari, kartochkalardan foydalanib darsning sifat va samaradorligini yana-da oshirishga erishish mumkin. Masalan:

1-topshiriq: "Gul" so'zi ishtirokida yangi so'zlarni hosil qiling va matn tuzing. Gulchi, gulzor, Gulchiroy, guldun....

2-topshiriq: Aralash holda berilgan so'zlardan gap tuzing. Bu topshiriqni so'zlardagi qo'shimchalarni yoki tinish belgilarini tushirib qoldirish orqali biroz murakkab ko'rinishda berish ham mumkin.

Hovli, maktab, gulzor, xona, sinf, guldun, solmoq, Sardor: Sardor maktab hovlisidagi gulzordan gullar gullar terib sinf xonasidagi guldonga soldi.

3-topshiriq: "Harflarni jonlantir" bunda aralash holda berilgan harflardan turlicha so'zlar hosil qilish kerak.

4-topshiriq: Birgina so'zdan turlicha yangi so'zlar hosil qilish.

O'zbekiston

o'z, bek, ek, on, nok, kon, en, ez, o'n.....

5-topshiriq: Birgina o'zakdan turli ma'nodagi so'zlarni hosil qilish.

Gul: gulzor, gulchi, guldun, Gulhayo, Gulchiroy....

6-topshiriq: Bitta tushunchaning ijobiy va salbiy jihatlarini ajratib yozish.

ma'lumotlar olamiz

yangiliklarni o'rganamiz

til o'rganamiz

elektron kitoblarni olamiz

intern
et

ko'zga zarar

xavfli saytlar

keraksiz ma'lumotlar

vaqtni oladi

onlayn hujjatlar

7-topshiriq: Ega va va kesimi berilgan oddiy gapni to'ldirib murakkab gapga aylantirish.

Dildora o'qiyapti: Dildora kecha kutubxonadan olib kelgan kitobini qiziqib o'qiyapti.

8-topshiriq: "Chiroyli nutq" bunda matndagi so'zlarni ma'nodoshi bilan almashtirish.

Bugun havo yaxshi. Quyosh charaqladi. Osmon tiniq.

Bugun havo ajoyib. Quyosh kulib chiqdi. Osmon musaffo.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, matn ustida ishlash bilan bog'liq holda tuzilgan lingvistik topshiriqlar o'quvchilarning lug'at boyligini, tilga oid bilimlarini hamda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi. Ona tili (1–11-sinf). O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi.
2. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi.
3. Abdullayeva F.N., Shodiyeva M.A. Ona tili darslarida lingvistik tushunchalarni o'rgatishning ahamiyati. Pedagogik tadqiqotlar jurnali. – 2024, noyabr.
4. Shodiyeva M.A. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida lingvistik tushunchalarni o'rgatishning nazariy asoslari. "Globallashuv sharoitida ilm-fan muammolari" mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya. – 2024.
5. Shodiyeva M.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini lingvistik tushunchalar bilan tanishtirish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish. Iqro – volume 14, issue 02, 2025, 225–227.